

Qadimiy va tabarruk shahrisabz zamini g'oyat qutlug' maskandir. Jahon madaniyati betimsol nomoyondalarining zavalasi mano shu tuproqdan olingan Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib kabi allomalarining ota-bobolari xuddi shu joyda kamol topganlar. Lekin bu el-yurtni butun jahonga mashhur etgan, dong'ini taratgan zot, shubhasiz, sohibqiron Amir Temur bobomizdir.

Islom Karimov

I. MAVZUNI ASOSLASH

MAVZUNI ASOSLASH

Har bir xalqning tarixi uning o'tmish haqidagi xotirasidir. Xotira yorqinmi, mahzunmi, sharaflimi uni o'zgartirishning iloji yo'qdir. Har bir xalq o'z tarixini boricha, har bir begona bo'yoqlarsiz, ortiqcha sharflarsiz bo'lishi kerak. Agar o'tmishda buyuk bobolari, betakror me'moriy obidalarini yoqdin voqealari bo'lgan bo'lsa yangi avlodlar ular bilan faxrlanishi, ibrat olishi kerak. Agar tarixida nomus qilarli, avlodlarning yuzini yerga qaratadigan voqealar bo'lsa, kelajak avlod ularni takrormasligi kerak. Boshqacha qilib aytganda, tarix bizning o'tmish va kelajak oldidagi kolatimizni ko'rsatadigan oynadir.

Afsuski, sobiq ittifoqda o'tmishga noholislik, bir yo'qlama yondashish uni yaxshi yomonga, oq-qoraga ajratish qoidaga aylangan edi. Xalqimiz tarixini qaysi davrini qanday o'rganish, sobiq markazdan kelgan goh ochiq, goh yopiq buyruqlar asosida amalga oshirildi. Sobiq Sovet davrining "yorqin kunlarini" yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun o'tmishni zo'r berib qoraladik. O'tmishimizda biror ezgulik yo'q edi, "biz inqilobga qadar savodsiz, madaniyatsiz va qoloq edik", deya jar soldik. Bu paytda esa tariximiz jimgina, soqov bo'lib, Turon tuprog'ida ajdodlarimiz yaratgan baqtriya, sug'd, xorazm, turk va arab imlolarida yaratgan bitiklarimiz, san'at asarlarimiz yotaverdi.

Samarqand, Buxoro, Termiz, Shahrisabz va Xina kabi ko'hna shaharlarimizdagi betakror, osmon o'par obidalarini barpo qilishda ajdodlarimiz eng murakkab me'moriy o'lchamlarni ishlatganliklarini bilib har biz o'tmishda savodsiz edik deya qulluq qilib turaverdik. Ulug' ajdodlarimizning qabilalarini oyoq oti qildik, noyob osori-atiqalarimizni talon-taroj qilishlariga yo'l qo'ydik. Natijada bobokalonlarimiz qoralaydigan, noyob me'moriy osori-antiqalarimiz taqdiriga befarq qaraydigan bo'lib qoldik. Lekin quyoshni biror narsa bilan to'sib bo'lmaganidek, vatanimiz tarixi va madaniyatini ham barcha ziyolilardan yashirib bo'lmasdi.

Hayriyatki, mustaqilligimiz tufayli o'tmishimizga bo'lgan noxolis munosabat o'zgardi, xalqimiz o'z o'tmishini anglash sari qadam qo'ydi va buguni hamda ertasini o'z qo'liga oldi.

Ana shu tamoyillar asnosida, men to'rtinchi bosqich talabasi bitiruv malakaviy ishimni bajarish uchun rahbarim bilan maslahatlashgan holda aynan shu mavzuni tanladim. O'zim Qashqadaryo farzandi bo'lganligim uchun, ushbu yurtning betakror me'moriy obidalarini o'rganishga bel bog'ladim. Qashqadaryo asori-atiqalari orasida Shahrisabz shahri o'zining jozibasi bilan asosiy o'rinni egallaydi. Yuqorida takidlan o'tganimdek, tarizimizni me'moriy obidalarimizni

o'rganish va targ'ib qilish biz yoshlarning ajdodlar oldidagi burchimiz desak, hech ham xato qilmagan bo'lamiz.

Buyuk ajdodlarimiz nomlari bilan bog'liq va bugungi kunda ham saqlanib kelayotgan tarixiy obidalarda qo'llanilgan me'morchilik an'analari hamon xorijiy sayyohlarni hayratga soladi.

Shahrisabz ana shunday xalqimizning qadimiy bunyodkorlik salohiyatini o'zida mujassam etgan va ayni paytda zamonaviy shaharlarimizda biri sanaladi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, bu yerda joylashgan tarixiy obodalarga mustaqillik yillarida qayta umr bag'ishlangani, xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlantirib borilayotgani sayyohlarning shaharga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Yurtboshimiz boshchiligida mamlakatimizning shahar va qishloqlari infratuzilmasining rivojlantirishga ularga xalq xo'jaligini turli sohalarini izchil shakllantirib borishga alohida e'tibor qaratib kelinayapdi.

Xususan, mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan 1996-yilda Sohibqirob Amir Temur bobomizning 660-yillik yubileyi, 2002-yilda Shahrisabz shahrining 2700-yilligi nishonlanish arafasida Shahrisabzning tarixiy markazi va undagi madaniy meros ob'ektlarida bunyodkorlik, ta'miralsh-tiklash ishlari bajarilganligi, Amir Temur maydoni tashkil etilib, unda Sohibqironning haykali o'rnatilganligi alohida e'tirof etish joiz.

Biz bilamizki, shahrisabz o'zining me'moriy yodgorliklari, boytarixiy merosiga ega va jahon sivilizatsiyasida alohida o'rin tutadigan shahardir. Ayniqsa, bu shaharni buyuk sarkarda Amir Temur bobomizning tug'ilgan yurti sifatida dunyo taniydi. Shaharning 23,6 gektar hududini egallagan tarixiy markazi 2000 yil 27-fevralda YuNESKO tashkilotining butunjahon madaniy meroslari ro'yxatga kiritilgan ham shundan dalolat.

Mustaqillik yillarida shaharda bundan bir necha asr avval Amir Temur bobomiz tomonidan olib borilganidek, ulkan bonyodkorlik ishlari bajarildi. Shahar qiyofasi tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ham bi ko'hna kentning tarixiy markazi atrofini sayilgohga aylantirish, aholining turmush farovonligini yanada yuksaltirish maqsadida zamonaviy infratuzilma ob'yektlarini bunyod etish, kummunikatsiya tizimini rekonstruksiya qilish, ko'p qavatli uy-joylar qurish, keng miqyosdagi bunyodkorlik va obodonlashtirish kabi qator ishlarni amalga oshirish borasida say-harakatlar ketmoqda. Ayni paytda shahar hududi 1590 gektarga kengaytirilgan bo'lib, hozirda 4868 gektarni tashkil qilmoqda. 1996-yil 18-

oktabrda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov Shahrisabz shahriga tantanali ravishda Amir Temur orderini topshirdi. Bu kun shahrisabzliklar uchun unitilmas sana sifatida yodga olinishini va har yili “Shahrisabz shahri kuni” sifatida keng nishonlanishi alohida qayd etish kerak. Bu sana joriy yilda ham Amir Temur nomi bilan ataluvchi xiyobonda keng jamoatchilik tomonidan katta tayyorgarlik bilan ko’tarinki ruhda nishonlandi. Tashkilot va muassasalarda bu kunga bag’ishlangan kechalar, turli tadbirlar uyushtirildi.

SHAHNISABZNING TARIXI VA ME'MORIY OBIDALARI:

Oq-saroy saroyi (1380-1404-yy)

Dorus-Saodat majmuasi (14-19 asr)

Dorus-Tilovat majmuasi (14-15 asr)

Gumbazi-Said maqbarasi (1437-1438-yy)

Shams-ad-din qulol maqbarasi (1373-y)

Xanako Arslon-Xon (15 asr)

Ahor-Su savdo rastasi (15-18 asr)

Xammom (15 asr),

Xanako Mirhamid (1914-y)

Malik-Ajdod masjidi (1903-1904 yy)

Kafa madrasasi (16 asr)

Chubin madrasasi (19 asr)

Kunchiqar masjidi (19 asr)

Hazrati Imom masjidi (19 asr)

a) SHAHRISABZ SHAHRI HAQIDA

Shahrisabz-o'rta asarlarda Kesh deb nomlangan qadimgi Nautaka shahri. "Dilkash, "Qubbatul ilm val-adab" tashbehlari bilan ezozlangan bu shahar muayyan davrlarda taqdir taqozasi ila jahon tarixidagi ba'zon shonli, bazida esa fojiali muhim voqealar markazida bo'lib keldi.

Bu yerda Nautaka qishloqlaridan birida Baqtriyaning tolesiz satrapi, o'zigaa o'zi shoh unvonini bergan Bess Makedoniyalik Aleksandrning sarkardasi Ptolemey tomonidan asir olinib, so'ng qatl qilingan. Bu xol Ahomoniylarning ulkan saltanati tomonidan asir olinib, so'ng qatl qilingan. Bu xol ahomoniylarning ulkan saltanati yakun topganidan nishona edi.

Makedoniyalik Aleksandr mil-avv 328-327-yillar qishini o'tkazish uchun Nautaka-Keshni tanladi. Aksiart qoyasini ishg'ol qilishga shu yerda yurish qildi va mazkur baqtr zodagonining oilasi, shu jumladan keyin o'zining rafiqasi bo'lgan go'zal Roksana asir olindi. Shu nikohdan tug'ilgan o'g'il-Aleksandr IV makedoniyaliklar sulolasining so'nggi podshosi bo'ldi. Ehtimol, shu yerda autakaning yaldo tunlarida Aleksandrning hayoliga o'z sarkardalarini mahalliy sug'd hamda baqtr ayollariga uylantirish va bu bilan Sharq ila G'arbni yaqinlashtirish g'oyasini amalga oshirish fikri kelgandir.

Bu voqeadan so'ng ming yil o'tdi. Ko'proq "Muqanna"- "niqobdor" nomi bilan mashhur bo'lgan 776-783-yillardagi arablarga qarshi qadratli harakat yo'l boshchisi Hoshim ibn Hakim Kesh yaqinidagi Sinam tog' qalasiini so'nggi maskan qilib, shu yerda shahodat topdi.

Muqannaning o'limi va uning harakati tor-mor keltirilishi tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'lgan, chunki u Movaraunnahr mahalliy aholisining boy berilgan erki hamda mahrum etilgan ko'hna dini uchun so'nggi urushini, ushbu mintaqa tarixi va madaniyatining islomgacha bo'lgan ulkan davrining nihoyasini hamda moddiy va madaniyatining barcha sohalarida islom rahnomaligida yangisifat holatiga o'tila boshlaganini bildirardi.

Biroq agar 1336-yil 9-aprelda Shahrisabz shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida baros urug'idan bo'lgan aslzoda Torag'ay oilasifa bo'lg'usi buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tug'ilmaganda, yuqorida bayon etilgan hodisalar qanchalik muhim bo'lmasin, bu shahar dunyoga u qadar mashhur bo'lmasdi. Taqdir bu shaxsni qayerda uloqtirmasin, baribir, shahrisabz doimo uning uchun kindik qoni to'kilgan shahar bolaligi va yoshligi o'tgan diyor, shaxs

sifatida shakllangan joy, padari buzrukvori Torag'ay va piri murshidi shamsiddin Kulol, to'ng'ich farzandlari Jahongiz Mirzo va Umarshayx Mirzo mangu maskan topgan muqaddas zamin bo'lib qoldi. Shahrisabz Amir Temur ulkan davlatining ikki poytaxti bo'lib, u bu shahar to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilgan, obodanlashtirgan va zeb bergan. Temurzoda Boburiylar sulolasining asoschisi Benazir Mirzo Boburning yozishicha, Amir Temur Shahrisabzni "Shahar va poytaxt qilurga ko'p ehtimollar qildi". O'sha vaqtda tenggi bo'lmagan hashamadli Oqsaroy qasri buning yaqqol dalolidir. Ispaniyaning Amir Temur saroyidagi elchisi, shahrisabz tarixida o'z o'zini qoldirgan ko'zga keringan shaxs bo'lmish Rui Gonsalesde Klavexo o'z asarida bu shaharga hayrat to'la sahifalarni bag'ishlagan.

Shahrisabz obodonlashtirish va bu yerda mamuriy inshootlar qurish an'anasida Amir Temur nabirasi, Temuriyzodalar orasida bobosining xotirasiga eng ko'p ehtirom bildirgan Mirzo Ulug'bek davom ettirdi. Biroq odamlar qanchalik buyuk bo'lmasinlar, Shahrisabz, shahri ahamiyatini ulargina belgilamagan. Katta Kesh deb nomlangan shaharning yuzaga kelishi, qaror topishi va rivojlanishi jarayonining o'ziyoq ancha muhim hamda qiziqarli bo'lib, u ham, Katta Marv, Katta Toshkent, Katta Temiz, quramalari singari, bir joydan boshqasiga ko'chib turgan. Biz qarama doirasidagi bunday ko'chish sabablari turli-tuman, vayrongarchilik, keltiruvchi urushlar, suv bilan ta'minlovchi manbalarning o'zgarishi, ijtimoiy va diniy buhronlar, shahar avval egallagan joyda yashash taqiqlanishidan iborat bo'lgan.

Ko'hna Qashqadaryoning sharqiy qismida qanday sabablarga ko'ra, mil avv IX-VII asrlarda avvalgi rivojlanish bosqichlarini kechirmay turib, mustahkamlangan, manzilgoh (Sangirtepa) yuzaga kelgani, keyinchalik ulkan shaharga, refugiunra (uzunqir) aylangani masalari hozir ham noaniq bo'lib kelmoqda. Bu hodisa shahar madaniyatining qo'shni Baqtriyadan kirib kelishi natijasimi? Yoki Sopolli madaniyatiga o'xshash mahalliy asosga ega bo'lgan jiz davriga xos qandaydir qadimgi dehqonchilik madaniyati evolyutsiya omilimi, Fanda va savollarga hozircha javob topilmagan.

Har holda, Ahomoniylardan oldingi (mil avv VIII-VI asrlar) hamda Ahamoniylar davridagi (mil avv VI-IV asrlar) Uzunqir Nauraka viloyatining yirik poytaxti, bo'lajak Shahrisabzning ilk darakchisi bo'lgan. Ellenlae va qang'yuyalar davrida (mil avv III mil III-IV asrlar) viloyatning poytaxt-markazi asta-sekin hozirgi Kitob o'rniga ko'chgan. Bu yerda mustahkam qal'asi (Qalandartepa yoki Tepai Afrosiyob) shahristoni devor bilan o'rab olingan va atrofida rabodlar joylashgan yirik shahar shakllana boshlagan. Mil avv III-I asrlardagi voqealarni

aks ettiruvchi “Katta Xan Xonadoni tarixi”da u qang’yuylarning kichik mulki Susening markazi sifatida tasvirlanadi. Olimlar bu shahar Kitobdagi antic shahar o’rtasida bo’lgan, deb hisoblashadi. Suse-xitoylar tomonidan juda buzib yuborilgan mahalliy nm bo’lib, u shu davrdayoq Kesh yoki Kish deb nomlangan bo’lishi mumkinligi ham ehtimoldan yiroq emas.

Bu davrda va avvalgi, Axamoniylar davrida Suse-Kesh mulkning poytaxti-markazi sifatidagina emas, balki bu davrda Baqtriya poytaxti-Baqtradan Sug’diyona poytaxti-Mariqandaga boruvchi eng qisqa yo’lni narozat qiladigan muhim harbiy punkt sifatida ham muhim ro’l o’ynagan. Aftidan, bu uzunqir va Kitob Singari shaharlarning yuzaga kelishi hamda jadal ravnaq topishini taqozo etgan sabablardan biri bo’lsa kerak. Bu yerda Tovar-pul munosabatlari ancha erta mil avv III asrdan, ehtimol, mil avv IV asr oxiridan boshlab rivojlangan. Bu munpsabatlar Makedoniyalik Aleksandr draxmalaridan taqlidan tanga chegarilishini, salavkiy va yunon-baqtr podshohlari tangalarining “Abtat” sulolasi hukmdorlari tomonidan Gerakl va Zevs tasviri bilan zarb qilingan mahlliy tangalarning muomilada bo’lishini ta’minlagan.

So’ng ilk O’rta asrlarda (V-VII asrlarda) shahar yangi joyga ko’chib alohida mulk poytaxti sifatida qaror topib, 190 yilcha ya’ni mil VII asr boshidan VIII asr o’rtalarigacha mavjud bo’lgan va arablar tomonidan tugatilgan Kesh qaror topdi. Shi, boshqacha aytganda, Kyuysha yoki Qieshuan, ya’ni Kesh yoki KEshan mulkining qudratli hukmdori Dichejning atrofi 2 li (ya’ni bir kun km) doiragacha cho’zilgan qarorgohi bo’lgan. U Sishi shahrini bunyod ettirdi-ki, bu Kesh nomi shakllaridan biridir.

KESHNING TARIXIY O'TMISHI

O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lgan shahrisabz buyuk Amir Temurning muborak nomi bilan bog'liq shonli tarixga ega. Shahrisabz ("Yashil shahar") toponimi ilk bor 1351-yilda chig'atoy xon Bo'yonqulixon nomidan zarb etilgan tangalardan uchraydi. 1352-yilda shu xon nomidan zarb qilingan tangalarda Kesh nomi ham bor. Shahar bir vaqtning o'zidan ko'hna va yangi nomi bilan yuritilishi uchrab turadigan hol. Chunonchi, XII asrga oid tangalardan Toshkentga nisbatan turli davrlarda qo'llanilgan uch nom-shosh, Binkat va Toshkent qayd etilgan.

Bu jihatdan Sharofiddin Ali Yozdiyning (XV asr birinchi yarmi) "Shahrisabz, uni turkiylar Kesh deb ataydilar" degan so'zlari e'tiborga loyiq. Aftidan XIV-XV asrlarda ushbu nomlarning ikkalasi bu shaharga nisbatan barovar qo'llanilgan ko'rinadi. Lekin XIV asrga qadar shahar, ehtimol, bitta nom bilan Kesh deb atalgan bo'lsa kerak.

Kesh toponimi dastavval Zardo'sht Ka'basi deb atalmish joydagi Shopur I (242-273) bitiklarida uchraydi. Unda Shopur I o'z davlati chegaralarini, shu jumladan O'rta Osiyodagi Kash, Sug'd va Shosh tog'larigacha yetib kelgan chegaralarini tasvirlaydi.

Ko'p tadqiqotchilar Kash toponimini Qashqadaryo vodiysidagi kesh bilan aynan bir joy, deb hisoblanadi. V.G. Lukonin esa bu joy Kashg'ar bo'lishi mumkin, deb ham tahmin qilinadi.

Tyan'shuda Kesh toponimi Kyuysha shaklida 656-660-yillarda oid voqealarda qayd etilgan. Xuddi shu nom bu yerda VII asr o'rtalarida hukmronlik qilgan Kesh hukmdori Ixrid filslarida ham uchraydi.

Shunday qilib, mazkur ma'lumotlar Kesh nomi mil III asrdan VIII asrgacha mavjud bo'lganidek guvohlik beradi, biroq bu mazkur toponim mil III asrdan oldin qo'llanilmagan, degan ma'noni bermaydi. Musulmon yozma manbalarida Kesh nomi dastavval VII asr oxiri VIII asr boshlaridan qo'llanilgan. Ular shaharning uch xil Kash, Kish Kesh shaklida yozilishi uchraydi. Biroq ulardan qaysi biri nisbatan to'g'riroq ekanligi masalasi noaniqligicha qolmqoda. Tangalardagi sug'dcha matnlarda bu so'z doim unlisiz, KS shaklida beriladi. Ilmiy adabiyotda va tamalda Kesh nomi qaror topgan, biroq bu toponimning to'g'ri nomi Kish yoki Kiss ham bo'lishi mumkin-ku, Yoqut aynan shu atamani Ibn Mukulga Suyangan holda ilgari surgandi.

Boz ustiga, bizningcha, shahar nomining dastlabki shakli Kishidan yoki Keshan bo'lgan ko'rinadi. Tangalardagi sug'dcha matnlarda u KSnK sifatida yoziladi va K suffiksli KSn so'zidan tarkip topadi. Xitoychada qisqa Izyuysha-Kyuysha bilan bir qatorda Syuyshuana shaklidagi to'liq yozuv ham uchraydi bejiz emas. Bu ikki shakl taomilda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin keyinchalik, VII asrdayoq qisqa shakldagi Kesh-Kish nomi ancha to'liq Keshan-Kishanni surib chiqatgan. Toshkentnng ko'hna nomi-to'liq shakldagi Chochan deb atalib kelgan Choch bilan ham shu hodisa ro'y bergani aniqlanadi.


Arab-fors manbalarida bu nomning uch xil shakli: Kishsh, Kiss va Kashsh qabul qilingan. Beruniy Kash-mahalliy shakl, Kas esa forsiy shakl deb aytgan.

V.V. Bartold Kesh nomini ma'qul deb topgan, shundan so'ng bu nom ilmiy adabiyotlarda keng istifoda etila boshlangan. Vaholanki, Kish shakli to'g'riroqligiga ham asos ham emas.


Afsonaga ko'ra, bu hududda birinchi shahar bunyodkori "Shohnoma" bo'yicha Kayoniylarning uchinchi podshosi mifik Kayumors bo'lgan.

Kitob o'rnidagi ilk manzilgohi bo'lgan Qalandartepa yoki Tepai Afrosiyob ham "Shohnoma"ning boshqa bir mashhur qahramoni nomi bilan bog'liq. Islomgacha yaratilgan manbalarda bu hudud to'g'risida ma'lumot kam. Bunday ma'lumotlar I. Markvart asarida ancha to'liq berilgan. Hozir bu ma'lumotlar numizmatik materiallar bilan muayyan darajada to'ldirmoqda.

Mil.avv. 539 yoki 529 yillarda O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'I hududi Axomoniylar podsholigi tarkibiga kirgan va Makedoniyaliklar Aleksandrning ushbu hududga yurishigacha shunday bo'lib kelgan. Aleksandrning sarkardasi Ptolemiy baqtr satrapi, o'zini o'zi podsho deb e'lon qilgan Bessni, E.V. Rtveladze taxminicha, Nautaka viloyati tarkibiga kirgan shu hududda-Uzunqir panagoh qal'asida asir olgan, degan fikrlar mavjud.




Ангиллак гори . Урта палеолит





Сийпантош . Умумий куруниши .

Коядаги расмлар .
Сийпантош .
Милоддан аввалги
X-V минг йилликлар



Коядаги расмлар .
« Бука » .
Сийпантош .
Милоддан аввалги
X-V минг йилликлар



Коядаги расмлар . « Таквим » . Сийпантош .
Милоддан аввалги X-V минг йилликлар


Болта ва ханжар .
Шахрисабз атрофидан
топилган .
Милоддан аввалги
II минг йиллик охири
I минг йиллик бошлари




Темир пичок .
Даратепа .
Милоддан аввалги
VII – VI асрлар




Уд чалаётган аёл .
Терракота .
Саройтепа .
Милодий биринчи
асрлар.




Илон шакли .
Пиширилмаган лой .
Подаётоктепа .
Милоддан аввалги
IV асрнинг охири –
III асрнинг биринчи
ярми



Гудак кутарган маъбуда .
Терракота . Саройтепа .
Милоддан аввалги
II – I асрлар



Терракота хайкалча .
Шахрисабз шаҳар тарих
музейи .
Милоддан аввалги
биринчи асрлар



Уд чалаётган аёл .
Терракота .
Юкори сарой .
Милодий биринчи
асрлар




Кулохий шаклдаги бош
кийимли эркак боши.
Терракота . Шахрисабз
шахар тарих музейи .
Милодий биринчи асрлар.




Аёл боши . Терракота .
Юкори сарой
кишлогидаги
мактаб музейи .
Милодий биринчи
асрлар.



Аёл боши .
Терракота .
Каттажартепа .
Милодий биринчи
асрлар.



Сопол дастурхон .
Шахрисабз шаҳар
тарих музейи .
X –XI асрлар



Санам боши .
Терракота .
Кашкадарё водийси .
Милодий VI – VII
асрлар.




Остадон .
Милодий
VII – VIII асрлар



Остадон .
Хирмонтепа .
Милодий
VI – VII асрлар




Хум . Олтинтепа .
X – XII асрлар




ШАХРИСАБЗ МЕЪМОРИЙ ОБИДАЛАРИ

Шахрисабз .
Оксарой касри юкори
майдончасидан
шахарнинг
умумий курилиши.




Ок сарой


Оксарой касри Урта осийёдаги урта асрларга оид буюк меъморий ёдгорликдир. Хозир ундан улкан пештокнинг икки кудратли устунигина сакланиб қолган .
Низомиддин Шомий : « Унинг пешток ва равоқларини Айюк (юлдузига) етказдилар , чунончи, бирон кимса жаҳонда унга тенг келадиган иморатни қурмаган ва эшитмаган эди » ,
- деб ёзганди.



Оксарой касри . Кириш пештоқи .
XIV аср охири .




Ок сарой




Оксарой касри .
Мозаикали саҳн .
XIV аср охири



Оксарой касри . Девор безаклари
парчаси . XIV аср охири .




Оксарой касри .
Девор безаклари
парчалари .
XIV аср охири .




Шамсиддин Кулол макбараси


Шамсиддин Кулол макбараси Кукгумбаз масжидининг шаркий укида жойлашган . Тархига кура у ташкаридан тугри тўртбурчакли (12 x 10,5 м) , ичкаридан эса квадратдир (7,5 x 7,5) . Девори анъанавий квадрат шаклдаги пишик гиштдан кутарилган . Макбара ичкарисининг у ер-бу ери сувоклари бир неча бор янгиланган. 1998 йилдаги таъмирлашга қадар томи ясси бўлган . Макбаранинг олд тарзи гарбга, Кукгумбаз масжиди пештоки укига қараган .



Шамсуддин Кулол
макбарасининг уйма
накшли эшиги .
XIV аср охири




Шахрисабз . Шамсиддин Кулол саганаси .
XIV аср охири (1374 йил)



Амир Темур дахмаси .
Жахонгир макбараси якинида .
Ички куруниши . 1394 йил




Амир Темурнинг набираси Сайди Ахмад саганаси .
Шахрисабз . XV аср



Жахонгир макбараси .





Безак парчаси .
Жаҳонгир макбараси .
Шаҳрисабз .
XIV аср охири -
XV аср боши




Ёғоч уймакорлиги .
Жаҳонгир макбараси .
Шаҳрисабз .
XIV аср охири -
XV аср боши

Кукгумбаз масжиди

Кукгумбаз масжиди деярли квадрат шаклда (12,52 x 12,61 м), тўрт томонида эни 4,48-4,63 м ли , ичкарига 2,05 м кириб борган тахмонлар бор. Ғарбий тахмонда бешбурчак меҳроб жойлашган . Жанубий , шимолий , шарқий деворларида равокли утиш жойи қуйилган . Шимолий ва жанубий утиш жойларидан ён томонлардаги айвонларга чиқилади . Шарқий тахмон масжид бош тарзи пештокининг бакувват ён устунларидан ҳосил бўлган . Масжиднинг ички қурилиши оддий.



Кукгумбаз жомеъ масжиди ва
Гумбази Саййидон мажмуоти .
Умумий қурилиши .



Кукгумбаз масжиди
Минораси ҳамда
Пештоки . 1434/1435

II. ATROF MUXIT MUXOFAZASI QISMI

ATROF MUXIT MUXOFAZASI

Keyingi davrlarda- fan va texnika yutuqlariga asoslangan insoniyatning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri nihoyatda kuchaygan bir vaqtda tabiatni, undagi ekologik muvozanatni asrash nihoyatda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham kelajak avlodni ekologik jihatdan savodli va yetuk kishilar qilib tarbiyalash, bu borada yoshlar ongida ekologik tushunchalarni shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammosidir.

Tabiat muvozanatini to'g'ri tushunmaslik natijasida inson o'z yashab turgan muhit tabiiy holatining o'ta buzulishga sababchi bo'lmoqda.

Xususan, Orol atrofida qishloq xo'jaligida yo'l qo'yilgan xatolar dengizining qurishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida ana shu viloyatlardagi aholi yashash sharoitlarining yashashiga va har xil kasalliklarining kuchayishiga sababchi bo'ldi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarining buzilishi har xil ekologik ziddiyatlarni keltirib, xossatan Amudaryoning quyi qismida hosil qilingan ekologik fojia, ya'ni har xil o'ta zaharli moddalarning dehqonchilikda ishlatilishi, daryo suvlaridan to'g'ri foydalanmaslik, mineral o'g'itlardan foydalanishning buzilishi, yerlarning qo'llab o'zlashtirilishi, to'qayzorlarning yo'qolishi, ko'llarning quritilishi mintaqada ekologik muvozanat buzilishiga olib keldi.

Tabiatni muhofaza qilish muammosiga e'tibor bermaslik yoki uni ikkinchi rejaga surishning o'zi insoniyatni oziq ovqat mahsulotlari bilan t'aminlash bo'yicha uzoq muddatga tuzilgan ejaning bajarilishiga to'sqinlik qiladi, xuddi shuningdek, u sanoatning har xil mahsulotlar bilan ta'minlashni buzadi. Oqibatda odamzotning yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitning yomonlashishiga olib keladi.

Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, tozalik, suvning, atmoesfera havosining tarkibi, va tuproqning unumdorligi jonli organizmlarning faoliyatiga bog'liqdir. Inson yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitning narsalarning yaratuvchisi tabiatdir.

Ha, tabiat bitmas-tuganmas xazina. Undagi jonsiz va jonli tabiatni, turli tuman osimliklar dunyosi, hayvonnot olami yosh avlodning tabiatdagi xilma-xillikni, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar qiziquvchan bo'ladi. Ular yashayotgan joyidagi rang barang gullarni, o'simliklar dunyosini, guldan-gulga qo'nib uchayotgan kapalaklarni, betinim sayrayotgan qushlarni ko'rib rohatlanadi, yayrashadi.

Yoshlarni, tabiatning ana shu go'zal manzalari bilan tanishtirib boorish, tabiatan har bir o'simligi, hayvonot dunyosi ekologik muvozanatni saqlashda naqadar katta ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etib, o'rgatib boorish ular ongida ekologik madaniyatni shakllantirish imkonini beradi.

Yosh avlodni tabiat va undagi ekologik muammolari haqida to'la tushunchalar hosil qilish uchun bu jarayon bo'yicha yoshidan boshlash lozimdir. SHuning uchun ham bolalar bog'chalari, boshlang'ich sinflar va ularda ishlayotgan tarbiyachi, muallimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bolalarni tabiatning xilma-xilligini, uning go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz beradigan o'zgarishlar haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lish, tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish tufayli undagi muvozanatni saqlash ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak.

Yosh avlodni tabiat va undagi ekologik muvozanat bilan tanishtirishdan asosiy maqsad ona vatanimizni sevish, uning o'simliklarini, hayvonot olamini saqlash, ko'paytirish va ularga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish ruhida tarbiyalash tufayli hozirgi davrda tabiatda sodir etilayotgan ekologik fojialarning oldini olishdan iboratdir.

Turli bilim dargohlarida ta'lim olayotgan talabalar ana shu muhim vazifani to'g'ri his qilgan holda birinchi navbatda tabiat qonunlari uning ekologik muvozanatini, shu vohada o'sadigan osimlik, yashaydigan hayvonot olami va ular tog'risidagi o'zaro bog'lanishlarni chuqur tahlil qilishlari lozim.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda yoshlar dastlab ilm poydevori bog'chalarda, maktablatda va oily o'quv yurtlarida olar ekanlar, biz tarbiyachilar va pedagoglar zimamsidagi asosiy va sharaflil vazifa yoshlarga ana shu davrdan boshlab bilib asoslarini puxta o'rgatish, tabiatda sodir bo'ldigan voqea hodisalar haqida puxta tushunchalar berishdan iboratdir.

Yoshlarda har tomonlama chuqur bilimlar hosil qilishda boshqa fonlar kabi ekologiya asoslarining o'rni ham muhim sanaladi, zero hozirgi davrda yer sharining ko'pchilik mintalqalarida vujudga kelayotgan ekologik fojialar ko'lamini nihoyatda kattadir.

Hozirgi zamon ekologiyasi tabiatdan samarali foydalanishning ilmiy uslublarini yaratmoqda, Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning

strategiyasini ishlab chiqib, uni hayotga tadbiq etmoqda. Gippokrat hayotning bir butunligini alohida qayd qiladi. Inson salomatligiga suv, havo va yashab turgan joyning ta'siri nihoyatda katta ekanini uqtiradi. Tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish nihoyatda zarur ekanini ko'rsatadi.

1964-yilda Xalqaro biologik dastur tashkil qilingan edi. Bunda birlashgan olimlar, bizning butun sayyoramizning maksimal biologik mahsuldorligini, ya'ni insoniyatning qo'lidagi barcha tabiiy fondler va Yer sharidagi o'sib borayotgan aholining undan foydalanishi mumkin bo'lgan maksimal normasini aniqladilar.

Xalqaro biologik dasturning asosiy maqsadi organik moddalarning miqdori va sifat jihatidan taqsimlanishi va ularning qaytadan tiklanish qonuniyatlarini, undan insonning unimli foydalanishini ta'minlash uslublarini yaratishdan iboratdir.

Hozirda jamiyatimiz oldida shunday vazifa kondalang bo'lib turibdiki, u ham bo'lsa sayyoramizdagi ekologik muvozanat buzilishining oldini olish masalasidir.

Sanoat rivoji, tabiiy boyliklari vahshiyona ekspluatatsiya qilish tabiatning ma'lum miqdorda buzilishiga olib keladi. Tabiatni muhofaza qilish masalasi, ulardan unimli va to'g'ri foydalanish, ekologik qonuniyatlarga amal qilish kishilik qonuniyatlariga amal qilish kishilik jamiyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ekologiya fanining o'zi bir qancha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Bulardan umumiy ekologik barcha organizmlarning muhit sharoitlari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini o'rganadi va alohida yo'nalish bo'yicha, ya'ni ma'lum endividlarning ekologiyasiga bag'ishlangan fiziologik ekologiya organizmlarining muhit sharoitlariga moslashishi natijasida organizmda sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rganadi. Keyingi davrlarda biokimyoviy ekologiya rivojlanib, u muhitning o'zgarishi tufayli unga maslashish natijasida organizmlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni molekulyar nuqtai nazaridan o'rganadi.

Poliekologiya-o'lib ketgan organizmlarning ekologik bog'lanishlarini o'rganadi, evalyutsion ekologiya esa populyatsiyadagi o'zgarishlarning mexanizmini aniqlaydi, morfologik ekologiya oziqlanish sharoitiga qarab organlarning tuzilishi, tarkibi, qonuniyatlarini geobotanika-fotosenozlarning tuzilishini va taqsimlash qonuniyatlarini o'rganadi.

Ekologik fikrlash shuning uchin ham kerakki, biz hayotimizda amaliy jihatdan yechimini kutayotgan masalalar kundan-kunga muammolarni to'g'ri hal

qilish uchun ekologik jihatdan savodli bo'lishimiz kerak. Hozirgi zamon ekologiyasi faqatgina akademik o'quv fani sifatida o'qitilmasdan, balki yoshlarni ekologik va tabiatni muhofaza qilish qonuniyatlari bilan to'la tanishtirishni talab qiladi.

Keyingi davrlarda O'zbekistonda va ayniqsa Orolbo'yi mintaqalarida tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, shuningdek dehqonchilik tizimida, dehqonchilik ilmining buzilishi tabiatdagi ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida bu fojiaoning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi har bir inson ekologik qonuniyatlarini bilish kerak. Keyingi davrda mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, boyliklaridan unumli foydalanish, undagi ekotizimni saqlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim tizimida ekologik fanini o'qitishga alohida e'tibor berilmoqda, bu esa yosh avlodda ekologik madaniyatini to'la shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi.

III. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT

MUHOFAZASI

Bitiruv malakaviy ishim “Shahrisabz me’moriy ibodalarini o’rganish va uni o’qitish uslubi” mavzusida bo’lib, unda loyihaning arxitektiraviy me’moriy, rejoury va landshaft dizayn yechimi qarab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishida xavfsizlikni ta’minlash, yong’in va elektr xavfsizligini oshirish, zilzilada va yog’in sochinlarda odamlarni muhofaza qilish chora tadbirlarini ko’rib chiqilgan. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy ishining “Hayotiy faoliyat xavfsizligi va mehnat muhofazasi” bo’limida biz asosiy etiborni har qanday joyda ham istalgan vaqtda ham sodir bo’lish ehtimoli bo’lgan tez-tez yuz beradigan yong’in portlash elektr havfsizligi xavo haroratining keskin sovib va isib ketishi kuchli qor yoki yomg’ir yog’ishi zilzilaga ma’lum talablar bajarilgan taqdirda evakuatsiya yo’llari deyiladi. Yuz bergan favqulotda vaziyatlarning turiga bogliq ravishda harakatlanish manbaida odamlar ta’sir etuvchi xavf va odamlar oqimining miqdori ozgarib boradi. Bu o’zgarish binolarning mo’ljallanishi odamlar oqimining tarkibi va turiga hamda evokuatsiyaning bosqichiga bogliq ravishda har xil kechadi.

Evakuatsiya yo’llari deb, bino va inshootlarda xavfli holat yuzaga kelganda odamlarning bino ichiga joylashgan doimiy ish joyida chiqadigan eng qisqa yo’l bilan tashqariga olib chiqadigan yonalish bo’ylab joylashgan yo’laklar kaledorlar, dahliz, zinaxonadagi zinapoyalar tabor, chiqish eshiklari va boshqalar kiradi. Evokuatsiya qilish joylari va yo’llarining miqdori va o’lchamlarini aniqlash talablari.

Zilzila yong’in va suv toshqilari kabi vaziyatlar sodir bo’lgan taqdirda bin ova inshootlarda yashaydigan yoki ishlaydigan aholini muhofaza qilishda katta samaradorlikka ularni evakuatsiya qilishda ishlatiladi. Shuning uchun ham qurilishlarni loyihalashdagi asosiy vazifalarda aholini evakuatsiya qilish yo’llarining rejaviy konstruktiv yechimini ishlab chiqishidir.

Aholini evokuvatsiya qilish deb, nomlanuvchi majburiy harakatlanish o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ofat manbaidan xavfsiz joyga harakatlanib odamlarning tashqariga chiqishi, bog’da joylashgan bin ova inshootlarda xonadan xonaga eshik orqali o’tish yo’laklari va kalidorlar bo’ylab yurib, zinapoyalardan tushishga to’g’ri keladi. Bu yo’llar va chiqish joylari va sanitariya gegin talablari hamda tizimlarining ishdan chiqishi suv bosichi kabi ofatlarga qaratamiz.

YONG'INLAR VA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Shahrisabz shahri tog'da yaqin hududda joylashgani uchun yong'in tez tez sodir bo'ladi. Yozda esa qurg'onchilik bo'ladi. Shuning uchun yong'in xavfsizligini ko'rib chiqamiz. Yong'in insonlar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi moddiy va ma'naviy boyliklarni yo'q qiluvchi ofat, nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni. Yong'in kelib chiqishi uchun quyidagi uch omilni bir vaqtning o'zida bir joyda bo'lishi yetarlidir.

Ya'ni

- yonuvchi modda (qog'oz, yog'och, texta, neft va uning mahsulotlari)
- yonish manbai (gugurt, uchqun, alanga)
- oksidlanuvchi (kislarod havo).

IV. O'QUV

USLUBIY QISM

PEDAGOG QANDAY BO'LISHI KERAK

Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fandit. Kishilik jamiyati taraqqiy etishi bilan u ham o'sib boradi. Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlarning mehnat faoliyati protsessida ularning ishlab chiqarish tajribalari mehnat malakalari paydo bo'ldi va ular o'zgarib, orta bordi, ularda turli mehnat qurollarini ishlata bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi va bu qurollarni takomillashtirish qobiliyati, nutq va tafakkur o'sib rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat protsessida arttirgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatda ishtirok etishga o'rgatish kerak edi va shunday qildi. Shunday qilib tarbiya kishilik jamiyati praktik ehtiyojining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi. Tarbiyaning amalga oshirishi prosessini anglash va bu sohadagi tajribalarni o'rganishga ehtiyojning tug'ilishi natijasida pedagogika fani yuzaga keldi.

Kishining kasbiy qanchalik murakkab bo'lsa, undan shu qadar yuqori madaniyatli bo'lish talab qilinadi. Pedagog ya'ni o'qituvchilik kasbi ham murakkab kasblardan biridir. Hozirgi zamon o'qituvchi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jihatdan pishiq, ruhan tetik, bilimdon, vatanparvarlik, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning aktiv binokori qilib yetishtirish vazifasi yuklangan. Shuning uchun ham u keng ma'lumotli va yuksak madaniyatli bo'lishi lozim.

O'qituvchi qanchalik ma'lumotli, ishining ko'zini biladigan bo'lsa, o'z malakasini tinmay oshirib borsa uning maktabga va maktabdan tashqari qilinadigan ishlar sohasida erishadigan muvaffaqiyatlari ham shunchalik seunum bo'ladi. Bunday o'qituvchi o'zi ishlayotgan sinfda puxta uyushtiradi, hali bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini istevdod va qobiliyatini darsni o'zlashtirish yoki o'zlashtira olmaslik sabablarni o'qituvchining ichki dunyosi tezda bilib oladi. Bu esa o'sha o'qituvchiga ishlayotgan sinfda bu umuman maktabda ta'lim va tarbiya ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishiga yordam beradi. Buning uchun u doimo va xalq maorifiga odabiotlari bilan tanishib boorish, o'zi o'qitadigan predmetni yaxshi bilishi kerak.

Shuning uchun hamisha yangi g'alabalar sari dadil qadam tashlab beruvchi yangiliklar izlovchi har bit o'qituvchi ta'lim tarbiya yo'llariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish uchun tabiat va jamiyatning vujudga kelishi hamda taraqqiy etish qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak. O'qituvchi sinfda va sinfdan tashqarida o'qituvchilar o'rtasida olib boradigan ta'lim-tarbiya ishida ularni hozirgi zamon masalalari bilan tarbiyalaydi.

O'qituvchi talabalarni sevish ularga chinakam g'amxo'rlik qilish va ular bilan o'z farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Talabalar mehribon ochiq ko'ngil, o'zini ularga yaqin tutadigan o'qituvchini sevadigan, har bir ishda unga erishishga harakat qiladilar, hatto shunday hislatlarga ega bo'lgan pedagoglardan ba'zilarini umr bo'yi unutmaydilar.

O'qituvchiga xos xususiyatlardan yana biri talabalar bilan bir me'yorda munosabatda bo'lish, lekin ularga nisbatan qat'iy va jiddiy talabchan bo'la olishdir. O'qituvchi talabalar bilan yaqindan munosabatda bo'lish ularga doimo g'amxo'rlik qilish bilan bir vaqtda ularni erkalatib ham yubormasligi kerak.

O'qituvchi o'quvchilarning tabiati taqlidchan bo'lishini ular birinchi navbatda o'z o'qituvchilariga taqlid qilishlarini o'qitmasligi, xox darsda xox darsdan tashqari jamoatchilik to'planadigan yerlarda, o'zini o'qituvchilarga namuna bo'ladigan darajada tuta olishi lozim. Bunga erishish uchun o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. Bu talabchanlik, avvalo o'ziga haqiqiy o'qituvchiga xos xamma ijobiy xislatlarni singdirishdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunday xislatlar o'z tarbiyalanuvchilari oldida to'g'ri namoyish qila olgan o'qituvchigina xurmat va izzatga sozovor bo'la oladi.

Maxsus fan o'qitunchisi
Tursunova Gulhayoning
4 soatga muljalangan

“Tasdiqlayman”
o'quv ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

DARS REJA MATNI

Gurux: 201 Dizayn
Sana:22.04.2014

Darsning tartib soni № 4 soatga muljallangan

Darsning mavzusi: “Rangtasvirda manzara ishlash”

Darsning maqsadi: Talabalarga manzara ishlashni to'shuntirib
ko'rsatish

Talimiy: Ishlab chiqarish talimi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini
shakllantirish

.

Tarbiyaviy: Talabalarni kasbiy malakalarini shakllantirishda ustoz - shogird
an'alariga amal qilishni ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularning ijodiy
qobiliyatini o'stirish.

DARS TURI

Dars qilinadigan asosiy usullar:

Darsning jihozlari: Ushbu darsga ta'luqli bo'lgan asbob-uskunalar, materiallar, chizmalar va slaydlar.

DARSNING MAZMUNI

1. Tashkiliy qism: Talbalar bilan salomlashib jurnalda ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.
2. O'tgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.
 - a) Rangtasvir tarixini bilasizmi?
 - b) Rangtasvir so'zining ma'nosini aytib bering?
 - c) Rangtasvir necha xil bo'linadi?
 - d) Me'm manzara qanday ishlanadi?
3. O'tilgan mavzuga yakun yasash.
4. Yangi mavzuni boshi.
5. O'tilgan yangi mavzu yuzasidan savol javoblar.
6. Uyga vazifa.
7. Darsni yakunlash.

DARSNING BORISHI

REJA:

1. Me'm manzara ishlash ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish.
2. Manzara ishlashda, grafik ishlarni bajarihda ustoz-shogird an'analari, ustoz va shogirdning o'zaro me'zonlari asosida ish yuritib boorish.
3. Yuqorida o'tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talaba tafakkuri va kasbga qiziqishni oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid plakatlar seriyasini yaratish.
4. Eskizlardan foydalanib, qog'ozga eskizlarni tushurish.

Ishlab chiqarishni kasbiy ta'limiy usuldan maqsad manbalar mustaqil holda ko'rsatma va tavsiyanomalar tayanmasdan kasb-hunar, kasbiy hatti-harakatlar majmuasini shakllantirishdir. Talabalarga kasbiy ta'lim berish mazmuni deganda shunday bilim ko'nikma va malakalar majmuasi tushuniladiki ularni egallash orqali muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxasis tayyorlash tushuniladi. Ishlab chiqarish kasbiy ta'limining asosiy vazifasi bolajak malakali kichik mutaxasislarni muayyan yo'nalish sohasida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan yangi bilimlarni amaliyotga tadbqiq etishdan o'rganishdan zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib ishlab chiqarish kasbiy ta'limining asosiy mohiyati, talabalarga tegishli ixtisoslik bo'yicha mehnat jarayonlarni bajarish yo'llari va usullarini o'rganishdan iboratdir.

Shunday qilib ishlab chiqarish kasbiy ta'limning asosiy mohiyati talabalarga tegishli ixtisoslik bo'yicha mehnat jarayonlarini bajaraish yo'llari va usullari o'rganishdan iboratdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar xalqimiz faravon hayot kechirish va faol ijodiy mehnat qilishi uchun murakkab shart-sharoit yaratish, mintaqamiz va butun dunyoda ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutadi.

Bu muhim maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda malakali mutaxasis kadrlar shak-shubhasiz hal qiluvchi rol o'ynaydi. U aholining bilimdonlik darajasini ish bilan bandlikning kasbiy malaka tuzilmasi va shu kabi ko'pgina shart-sharoit vositalar orqali tarkib topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning

dastblanki, kunlaridanoq malakli mutaxassis kadrlar tayyorlash ulardan oqilona foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. “Ta’lim to’g’risidagi va kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonunlarni izchil amalga oshirish maqsadida men ham ustozlarim qatori kasbiy kollej talabalariga badiiy bezak va naqqoshlik fanidan dars berib, bu fanning sir-u asrorlaridan boxabar qilib o’rgatishni maqsad qilib oldim.

“Tasdiqlayman”

Kollej direktori

2013 - 2014 o’quv yiliga mo’ljallangan I-bosqich

“Tasviriy san’at” guruhi uchun o’qituvchi Tursunova Gulhayoning

“Miniatyura” fanidan tuzgan yillik ish dasturi

T/r	Bo’lim va mavzularni nomi	Mashg’ulot raqami	Dars o’tilgan kun	Dars soat	Mashg’ ulot tipi va turi	Ko’rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabi yotlar	Fanlar- aro bog’- lanish	Izox
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og’zaki amaliy	Rangtasvirga oid plakatlar va slaydlar	Rangtasvirga faniga oid yozma bayonot			Umumiy fanlar	
2	Kirish. Amaliy san’at asoslari	№2	14.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plakatlar					
3	Rangtasvir turlari	№3	20.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvir turlariga oid rasmlar	Rangtasvir turlarini ish dasturiga yozib borish			adabiyot	
4	Rangtasvirda mazmun va shakl	№4	26.04.13	2	Og’zaki	Rangtasvirda mazmun va shaklga oid bayonnomalar		O’qib kelish		Tarix	
5	Rang tasvir janrlari	№5	2.05.13	2	Og’zaki	Rangtasvir janriga oid materiallar					
6	Rangtasvirmanzara jnri	№6	8.05.13	2	Og’zaki	P. Benkov asarlaridan ellyustratsiyalar	Mustaqil o’qish	O’qib kelish	Umar ov A.		
7	Rangtasvirda manzara ishlash	№7	14.05.13	2	Og’zaki	Rangtasvir asboblari oid rasm va plakatlar		Rangtasvir		Rasm	
8	Dars o’tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsiz	№8	20.05.13	2	Og’zaki va amaliy	Xavfsizlik texnikasi va yong’in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o’rganish			Fizika ximiya	
9	Rangtasvirda ishlatiladigan asbob uskunalarni saqlash qoidalari	№9	26.05.13	2	Og’zaki	Ma’lum usullardan foydalanish					

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
10	Rangtasvirda ishlatiladigan moybo'yoq turlari	№10	1.05.13	2	Og'zaki	Moybo'yoq turlari tavlrlangan slaydlar	Eng sifatli moybo'yoqlarni tanlash	Sifatli moybo'yoq tanlash		Fizika, Ximiya	
11	Rangtasvir eskizlarini qog'ozga chizish	№11	7.06.13	4	Og'zaki	Ilyustratsiyalar chizilgan plakarlar	Eskizlarga bo'yoqlar tanlash			Ximiya	
12	Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Me'moriy manzalar tasvirlangan plakatalr				Kompozi tsiya	
13	Rangtasvirni qalamda so'ngra rangda kerakli o'lchamda chizib olish	№13	19.06.13	4	Amaliy					Matemat ika	
14	Rangtasvirda manzara chizish	№14	25.06.13	4	Amaliy	Eskizlardan foydalanish	Manzara kompozitsiyalarni tasvirlash			Chizmac hilik	
15	Taqdimot			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Tursunova Gulhayo

Samarqand viloyati
Samarqand shahar
Samarqand hunarmandchilik
kolleji Rangtasvir №____
guruh murabbiysi

“Tasdiqlayman” Kollej
ma’naviyati va ma’rifat
ishlari bo’yicha director
o’rinbosari

Tursunova Gulhayoning 2013-2014 o’quv yilida bajariladigan ma’naviy va
ma’rifiy ishlar rejasi

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izod
1	Avgust	25.08.13	Murabbiy
	Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog’I davlat tilini va president asarlari bilan jihozlash		
2	Sentabr	1.09.13	Ma’naviyat va ma’rifat bo’yicha director o’rinbosari
	1-sentabr O’zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag’shlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentabr	2.09.13	Direktor o’rinbosari
	Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalarini bilan tanishtirish		
4	Oktabr	Doimiy	Murabbiy
	Rangtasvirda ma’moriy manzara janri haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o’qish jarayonini tekshirib borish		
6	Oktabr	Doimiy	Tarix o’qituvchisi
	O’zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to’liq ma’lumot berish		
7	Dekabr	7.11.13	Murabbiy. Tarix o’qituvchisi
	8-dekabr O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma’ruza o’qish		
8	Yanvar	25.01.14	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to’plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko’rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi.		

Tuzuvchi fan o’qituvchisi:

Tursunova Gulhayo

XULOSA

XULOSA

San'atga bo'lgan qiziqishim meni shu oily dargoh tomon yetakladi. Hali-hali esimda, to'rt yil oldin avgust oyida talaba bo'lganimni eshitib, o'zimda yo'q xursand edim. Chunki oldimga qo'ygan maqsadlarim, ya'ni orzularimning birinchi amalga oshgandi o'shanda. Mana oradan ro'rt yil o'tib orzularimning asosiysi amalga oshishi arafasida turibman. Pedagog san'atshunos bolish orzusi maktab davridan boshlab menga tinchlik bermasdi.

Ana shu to'rt yil davomida ustozlardan bilganlarimni o'rgandim. Ko'pgina rassomlar ijodidan bahramand bo'ldim. Ularning asarlarini o'rgandim, tahlil qildim va nusxalar ko'chirdim. O'ylaymanki ana shu bilim va ko'nikmalar, diplom ishimni bajarishga qo'l keldi.

O'z navbatida 4 yillik tahsilim oxirida ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman. Ustozlarim qatorida ota-onamga rahmat aytaman. Ularning yordamisiz men bu natijalarga erishmagan bo'lar edim.

ADABIYOTLAR

ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov “O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” Toshkent 1992
2. I. A. Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida” Toshkent 1997-y.
3. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent 1997-y
4. “Bo‘yoqlar bilan ishlash” . X Egamov. Toshkent “O‘qituvchi” 1918-y.
5. “Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi” Oripov B. Toshkent “Ilm-Ziyo” 2005-y.
6. “Zamonaviy o‘qitish taxnologiyalari” X. T. Avliyoqulov. Toshkent 2001-y.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. “Rangshunoslik” M. Nabiyeu Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1995-y.
9. “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” N. Oydenov. Toshkent 1997-y.
10. “Rangtasvir” S. Abdurasulov , N. Tolipov. Toshkent 2005-y.
11. “Shahrisabz-Ming yillar merosi”. “Sharq nashriyoti” Toshkent 2002-y.
12. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari” Toshkent 2004-y.
13. www.ziynet. Shahrisabz.
14. www.google.com. Shahrisabz me‘moriy obidalari.
15. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” R. Egamberdiyev, R. Eshchanov Toshkent 2000-y.